

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 3



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№3 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурад Мансур Бобомурадovich
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариёва Аълохон Нуриддиновна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович

доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Холбеков Абугани ЛИТЕРАТУРНЫЙ МЕТОД КАК СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТРУМЕНТ В АНАЛИЗЕ ТОТАЛИТАРИЗМА (НА ПРИМЕРЕ РОМАНА «1984»).....	8
2. Султанова Эътибор МЕХАНИЗМЫ ПОЛИТИКИ ТОЛЕРАНТНОСТИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ.....	15
3. Латипова Нодира МЕСТО И РОЛЬ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЭТИКИ В СОЦИАЛЬНОЙ РАБОТЕ.....	21
4. G'afforova Mavlyuda JAMIYAT HAYOTIDA XOTIN-QIZLARNING SOTSIOMADANIY QIYOFASI.....	29
5. Tagiyeva Gulsum, Tursunboyev Jahongir O'ZBEKISTONDA ISTIQBOLLI YOSH RAHBAR KADRLARNI TAYYORLASH TIZIMINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	38
6. Xolbekov Abdugani, Axmedov Tuychi IJTIMOIY XAVFLAR SHAROITIDA MAHALLANING ROLI VA AHAMIYATI.....	51
7. Якубов Ильдар КОНЦЕПЦИИ УПРАВЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ РОЛИ ГОСУДАРСТВА: ПОЛИТИКО-СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОДХОД.....	57
8. Хасанова Мавлюда, Низамов Шохрухжон РОЛЬ ПАТРИОТИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ФИЛИАЛАХ РОССИЙСКИХ ВУЗОВ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	63
9. Mannanova Nilufar BUYUK BRITANIYA DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA KOMPETENSIYA MODELLARINING RIVOJLANISH AMALIYOTI.....	71
10. Berdimuratova Alima, Baymurzaev Azamat, Berdimuratov Nauriz JAMIYATDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING ROLI.....	78
11. Radjabova Aziza XALQARO MUNOSABATLAR VA JAHON SIYOSATIDA GENDER FENOMENI: FEMINISTIK NAZARIYANING KONSEPTUAL YONDASHUVLARI.....	87
12. Ixtiyarov Farxod RAQAMLI TENGSIZLIKNI INKLYUZIV YONDASHUV ASOSIDA BARTARAF ETISH IMKONIYATLARI.....	93
13. Ergasheva Mehribon “GENDER MADANIYATI” TUSHUNCHASI: MOHIYATI VA ASOSIY JIHLATLARI.....	100
14. Mengliyev Atabek REPRODUKTIV SALOMATLIKNI BELGILOVCHI IJTIMOYIY DETEMINANTLAR: SOTSIOLOGIK TAHLIL.....	107

15. Джураева Анна, Сеитов Азамат СОЦИАЛЬНАЯ ЦЕНА УСТОЙЧИВОСТИ: УРОКИ КРИЗИСА 2008 ГОДА И РИСКИ “ГОЛЛАНДСКОЙ БОЛЕЗНИ” ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА.....	118
16. Mo‘minov Zokirjon TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARINI YUQUMLI FUNKSIYALARI: IJTIMOIIY- STRAUKTURAVIY TAHLIL.....	125
17. Husenov Sirojiddin “HAR BIR OILA TADBIRKOR” HARAКATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.....	132
18. Kalanova Sabohat, Saidov Ulug‘bek RAQAMLI JAMIYATDA AVLODLAR ALMASHINUVI JARAYONLARINING DIFFERENSIATSIYASI.....	140
19. Toshbo‘riyeva Sevara TA‘LIM VA OILAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNING YOSH AYOLLAR IJTIMOIIY MOBILLIGIGA TA‘SIRI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA).....	150
20. Mannanov Erkin ETNOTURIZMNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARIGA BIR NAZAR.....	157
21. Артыкова Алёна ОРИЕНТАЦИЯ НА ЧЕЛОВЕКА: НОВЫЙ ВЕКТОР РАЗВИТИЯ МАХАЛЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	164
22. Zaitova Sitara O‘ZBEKISTONDA KAM TA‘MINLANGAN OILALARNI MANZILLI QO‘LLAB- QUVVATLASH MEХANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	177
23. Raximjonova Gulzira DAVLAT BOSHQARUVI SHAFFOFLIGINI TA‘MINLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINING O‘RNI: STATISTIK VA METODOLOGIK TAHLIL.....	186
24. Ro‘yiddinova Aisha O‘ZBEKISTONDA ISHONCHLI AXBOROT MUHITINING HOLATI VA UNING XALQARO KO‘RSATKICHLARDAGI O‘RNI.....	196
25. Xaydarova Javohira RAHBAR AYOLLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MEХANIZMLARI.....	203

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES


Mo‘minov Zokirjon,

Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

e-mail: zokir_odiliy@mail.ru, zokirjon0971@gmail.com

TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARINI YUQUMLI FUNKSIYALARI: IJTIMOYIY- STRAUKTURAVIY TAHLIL

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21111745>

ANNOTATSIYA

Jahonda o‘z yechimini kutayotgan masalalarga jamiyat sotsial birliklari muayyan mezon sifatida rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda aholining ijtimoiy malakasini, mehnat resurslarini harakatlantiruvchi motiv mexanizmlari, diffrenzial va subordinatsion yondashuv tarixiy davrlar uchun xos bo‘lgan ijtimoiy mobillik jarayoni darajasini belgilashda jamiyatning turli ehtiyojlari, subyektiv omillari va potensial imkoniyatlari sifatida qaraldi. Biroq, migratsiya jarayonlarini tahlil qilishda zamonaviy sotsiologiya va migratsiya tadqiqotlarida uning iqtisodiy sabablari bilan bir qatorda ijtimoiy-reproduktiv va yuqumli funksiyalariga alohida e‘tibor qaratish lozim. Yuqumli funktsiya tashqi migratsiyani yakka shaxsiy qaror darajasidan chiqarib, uni ijtimoiy strukturalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan tizimli jarayon sifatida namoyon qiladi. Aynan shu jihatdan tashqi migratsiya ijtimoiy mobillikning transformatsiyasiga ta’sir etuvchi muhim omil hisoblanadi. Bunday ijtimoiy yondashuvlar dalillarning tizimli sotsiologik tahlillari, muayyan davrda jamiyat demografik manzarasining aniq illyustratsiyasi va funksional ahamiyatini yaxlit anglash imkonini yaratadi hamda tarixiy rivojlanish genezisining retrospektiv asoslari va bosqichlari, tajribasini umumlashtirgan tarzda oydinlashtiradi.

Kalit so‘zlar: oila, mahalla, jamiyat, sotsial, omil, migratsiya, jarayon, yuqumli, funktsiya, mehnat bozori.

Муминов Зокиржон,

доктор философии (PhD) по социологии, доцент,

независимый исследователь Наманганского

государственного университета

e-mail: zokir_odiliy@mail.ru, zokirjon0971@gmail.com

ЗАРАЗИТЕЛЬНЫЕ ФУНКЦИИ ПРОЦЕССОВ ВНЕШНЕЙ МИГРАЦИИ: СОЦИАЛЬНО-СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ

АННОТАЦИЯ

В мировом сообществе при разработке стратегий развития, направленных на решение актуальных социально значимых проблем, социальные общности рассматриваются как важный критерий оценки уровня социальной квалификации населения, мотивационных механизмов, определяющих мобильность трудовых ресурсов, а также дифференциальных и

субординационных подходов. Эти факторы выступают в качестве различных общественных потребностей, субъективных условий и потенциальных возможностей, определяющих уровень социальной мобильности, характерный для конкретных исторических периодов. Вместе с тем при анализе миграционных процессов в современной социологии и миграционных исследованиях необходимо уделять особое внимание не только их экономическим причинам, но и социально-репродуктивным и контагиозным функциям. Контагиозная функция выводит внешнюю миграцию за рамки индивидуального решения личности и представляет её как системный процесс, тесно связанный с социальными структурами. Именно в этом аспекте внешняя миграция выступает важным фактором трансформации социальной мобильности. Подобные социологические подходы создают возможности для системного анализа эмпирических данных, целостного понимания функционального значения и точной иллюстрации демографической картины общества в конкретный исторический период. Кроме того, они позволяют комплексно осветить ретроспективные основы, этапы и опыт генезиса исторического развития общества.

Ключевые слова: семья, махалля, общество, социальный, фактор, миграция, процесс, контагиозный, функция, рынок труда.

Muminov Zokirjon,

Doctor of Philosophy (PhD) in Sociology, Associate Professor,
independent researcher of Namangan State University
e-mail: zokir_odiliy@mail.ru, zokirjon0971@gmail.com

CONTAGIOUS FUNCTIONS OF EXTERNAL MIGRATION PROCESSES: A SOCIAL-STRUCTURAL ANALYSIS

ABSTRACT

Social groups are considered an important criterion in formulating development strategies, taking into account the population's social competencies, motivational mechanisms driving labor resource mobility, and differential and subordinational approaches, in addressing the pressing challenges facing the modern world. These factors are viewed as diverse social needs, subjective determinants, and potential opportunities that shape the level of social mobility characteristic of specific historical periods. However, contemporary sociology and migration studies emphasize the need to focus not only on their economic causes but also on their socio-reproductive and contagious functions in the analysis of migration processes. The contagious function extends external migration beyond the scope of an individual decision, presenting it as a systemic process closely interconnected with social structures. In this regard, external migration serves as a significant factor influencing the transformation of social mobility. Such sociological approaches provide opportunities for a systematic analysis of empirical evidence, a comprehensive understanding of the functional significance of migration processes, and an accurate illustration of the demographic profile of society within a particular historical period. Furthermore, they contribute to clarifying the retrospective foundations, stages, and accumulated experiences of the genesis of historical development in a generalized and coherent manner.

Keywords: family, mahalla, society, social factor, migration, migration process, contagious function, labor market.

KIRISH

Globalashuv jarayonlarining chuqurlashuvi, mehnat bozorlarining integratsiyalashuvi va davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning kengayishi tashqi migratsiyaning zamonaviy jamiyat hayotidagi ahamiyatini yanada oshirmoqda. Bugungi kunda tashqi migratsiya nafaqat aholining hududiy harakatlanishi, balki iqtisodiy, ijtimoiy, demografik va madaniy o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatuvchi muhim ijtimoiy fenomen sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois tashqi migratsiya

jarayonlarini faqat demografik yoki iqtisodiy nuqtai nazardan emas, balki uning ijtimoiy-strukturaviy funksiyalari orqali ham tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tashqi migratsiya mehnat resurslarining qayta taqsimlanishi, aholi bandligini ta'minlash, oilalar daromadlarini oshirish va inson kapitali rivojlanishiga xizmat qilishi bilan birga, ijtimoiy qatlamlashuv, ijtimoiy mobillik, demografik tarkib va ijtimoiy munosabatlarga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, mehnat migratsiyasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda migratsiya jarayonlari jamiyatning ijtimoiy strukturasi yangi munosabatlar, qadriyatlar va ijtimoiy amaliyotlarni shakllantirishga olib kelmoqda.

Zamonaviy sotsiologiyada tashqi migratsiyani tahlil qilishda struktura-funksional yondashuv muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuvga ko'ra, migratsiya ijtimoiy tizimning muayyan ehtiyojlarini qondiruvchi va uning barqarorligini ta'minlovchi ijtimoiy mexanizm sifatida qaraladi. Shu bilan birga, migratsiya jarayonlari jamiyat taraqqiyoti uchun ijobiy funksiyalarni bajarishi bilan bir qatorda, muayyan disfunktsional holatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, mehnat resurslarining chiqib ketishi, oilaviy munosabatlarning o'zgarishi, ijtimoiy nazoratning susayishi va demografik nomutanosibliklar shular jumlasidandir.

O'zbekistonda ham tashqi mehnat migratsiyasi aholining iqtisodiy faolligini ta'minlash, turmush darajasini oshirish va kambag'allikni qisqartirishning muhim omillaridan biri bo'lib qolmoqda. Biroq migratsiyaning iqtisodiy samaralari bilan bir qatorda uning ijtimoiy oqibatlari, jumladan, oila instituti, yoshlar ijtimoiylashuvi, mahalla munosabatlari va ijtimoiy stratifikatsiya jarayonlariga ta'sirini ilmiy jihatdan o'rganish zaruriyati saqlanib qolmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi tashqi migratsiya jarayonlarining ijtimoiy funksiyalarini ijtimoiy-strukturaviy yondashuv asosida tahlil qilish, uning jamiyat ijtimoiy tizimiga ta'sirini baholash hamda migratsiyaning ijobiy va salbiy funksional oqibatlarini aniqlashdan iborat. Shu maqsadda tashqi migratsiyaning nazariy asoslari, uning ijtimoiy strukturaga ta'sir mexanizmlari va zamonaviy migratsiya jarayonlarining funksional xususiyatlari tahlil qilinadi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati tashqi migratsiyaning ijtimoiy-strukturaviy mohiyatini chuqurroq ochib berish, uning jamiyat rivojlanishiga ta'sirini kompleks baholash hamda migratsiya siyosatini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish imkoniyatini yaratishi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan tashqi migratsiyaning funksiyalarini ijtimoiy-strukturaviy tahlil qilish zamonaviy sotsiologiyaning dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

METODOLOGIYA

XXI asrda tashqi migratsiya global ijtimoiy tizimning ajralmas qismiga aylandi. U faqat aholi harakati yoki mehnat resurslarining joy almashishi emas, balki ijtimoiy ong, qadriyatlar, intilishlar va xulq-atvor modellarining transformatsiyasini anglatuvchi murakkab ijtimoiy fenomendir. Ayniqsa, tashqi migratsiyaning yuqumli (sontagious) funksiyalari bu jarayonning jamiyatda kengayib borish mexanizmlarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Migratsiya jarayonlari yuqumli funksiyasi deganda migratsiya tajribasi, qaror qabul qilish uslubi va "muvaffaqiyat modeli"ning ijtimoiy muhit orqali tarqalishi, takrorlanishi va ommalashuvi tushuniladi. Bu funktsiya tashqi migratsiyani individual qarordan ijtimoiy tendensiyaga aylantiradi.

Mazkur tahlil tashqi migratsiyaning yuqumli funksiyalarini ijtimoiy strukturalar – oila, mahalla, mehnat bozori, ta'lim va institutsional muhit kesimida ochib beradi.

ASOSIY QISM

Tashqi mehnat migratsiyasi zamonaviy jamiyatda faqat aholining hududiy harakati sifatida emas, balki ijtimoiy tajribalar, xulq-atvor modellari va hayotiy strategiyalarning jamiyat ichida keng tarqalishi bilan xarakterlanadigan murakkab ijtimoiy fenomen sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, migratsiya jarayonlarining "yuqumli funksiyasi" uning ijtimoiy strukturalar orqali avloddan-avlodga, guruhdan-guruhga o'tib borishini ifodalaydi [1].

Tadqiqotlarda tashqi migratsiya ko'p hollarda individual qaror emas, balki muayyan ijtimoiy muhitda shakllangan ijtimoiy norma va umumiy kutilma natijasi ekanligi ta'kidlanadi. Bu jarayon esa eng avvalo oila, mahalla va mehnat bozori kabi asosiy ijtimoiy institutlar orqali namoyon bo'ladi.

Oila tashqi migratsiyaning shakllanishi va qayta ishlab chiqilishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy institut hisoblanadi. O'zbek sotsiologlari ta'kidlashicha, oila nafaqat ijtimoiylashuv makoni, balki iqtisodiy va strategik qarorlar qabul qilinadigan asosiy ijtimoiy tuzilmadir [2].

1-jadval

«Siz yashayotgan hududga qarindoshlaringiz ko'chib o'tishdimi?»

№	javoblar	%
1	Ha, aka-uka va opa-singillar	23,0
2	Ha, boshqa yaqin qarindoshlar	18,0
3	Ha, uzoq qarindoshlar	5,0
4	Ha, do'stlar	7,0
5	Yo'q	38,0
6	Javob berishga qiynalaman	9,0

So'rovnomada ishtirok etganlarning aytishicha, qarindoshlarining ko'plari, ya'ni 38 foizi ular ko'chib borib yashayotgan joylarga ko'chishmagan. Respondentlarning 23 foizi aka-uka va opa-singillarining, 18 foizi boshqa yaqin qarindoshlarining ularnikiga ko'chib kelganini ta'kidladi (1-jadval). Binobarin, ketish yaqin qarindoshlaridan biri bilan birga amalga oshiriladigan bo'lsa, migratsiya to'g'risidagi masala asosan oila qaroriga ko'ra amalga oshirilishi aniqlandi.

Bir oila a'zosining xorijda ishlab kelishi orqali orttirilgan tajriba boshqa a'zolar uchun real hayotiy namuna sifatida xizmat qiladi. Bu jarayon quyidagi asosiy mexanizmlar orqali amalga oshadi:

Birinchi, iqtisodiy samaradorlik mexanizmi. Migrant tomonidan oila budjetiga kiritilayotgan barqaror pul tushumlari, uy-joy sharoitining yaxshilanishi va iste'mol darajasining oshishi tashqi migratsiyani iqtisodiy jihatdan eng samarali strategiya sifatida namoyon qiladi[3]. Natijada mahalliy mehnat faoliyati past daromad manbai sifatida qabul qilina boshlaydi.

Ikkinchi, ijtimoiy maqom va nufuz mexanizmi. Xorijda ishlab qaytgan shaxs oila doirasida obro'-e'tiborga ega bo'ladi, uning fikriga ko'proq quloq tutiladi. Bu holat migratsiyani ijtimoiy muvaffaqiyat bilan bog'langan fenomen sifatida mustahkamlaydi.

Uchinchi, avlodlararo strategiya mexanizmi. Ko'plab tadqiqotlarda qayd etilishicha, migratsiya tajribasiga ega ota-onalar farzandlarini ham kelajakda xorijga ishlashga yo'naltiradi. Bu holat ta'limning o'ziga xos pragmatik talqiniga – ya'ni ta'lim migratsiyaga tayyorgarlik vositasi sifatida qabul qilinishiga olib keladi [4].

Shu tariqa tashqi migratsiya oila doirasida individual qarordan institutsionallashgan hayotiy strategiyaga aylanadi. Bu esa ichki ijtimoiy mobillik kanallariga nisbatan ishonchning susayishiga sabab bo'ladi.

Mahalla va mahalliy jamoalar darajasida. Mahalla o'zbek jamiyatida o'ziga xos ijtimoiy makon bo'lib, u axborot tarqalishi, ijtimoiy baholash va ijtimoiy nazorat mexanizmlarini birlashtirgan noyob institut hisoblanadi. Shu sababli tashqi migratsiyaning yuqumli funksiyasi aynan mahalla muhitida eng tez va keng tarqaladi.

Mahalliy darajada quyidagi jarayonlar ustuvor ahamiyat kasb etadi:

Birinchidan, migratsiyaga oid axborotning noformal tarzda tarqalishi. Qo'shniçilik, qarindoshlik va do'stlik munosabatlari orqali xorijdagi ish haqi, yashash sharoiti va ish topish imkoniyatlari haqidagi ma'lumotlar tez tarqaladi. Bu axborot ko'p hollarda rasmiy manbalardan ko'ra ishonchliroq qabul qilinadi.

Ikkinchidan, “muvaffaqiyatli migrant” obrazining shakllanishi. Mahallada xorijda ishlab kelgan shaxs moddiy farovonlik, mustaqillik va hayotiy barqarorlik timsoli sifatida qabul qilinadi. Bu obraz mahalliy yoshlar uchun ijtimoiy etalonga aylanadi[5].

Uchinchidan, migratsiyaga qo'shilmaslikning ijtimoiy passivlik sifatida baholanishi. Mahallada qolib ishlash, ayniqsa past maoshli sohalarda mehnat qilish ijtimoiy jihatdan kam samarali tanlov sifatida qabul qilinadi. Natijada mahalla doirasida tashqi migratsiya kollektiv rag'batlantiriladigan strategiya sifatida mustahkamlanadi va mahalliy ijtimoiy faollik pasayadi[6].

Mehnat bozori strukturasi tashqi migratsiyaning yuqumli ta'siri. Tashqi migratsiyaning yuqumli funksiyasi milliy mehnat bozorining tarkibiy tuzilishiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbek iqtisodchi va sotsiolog olimlarining fikricha, migratsiya mehnat resurslarining ichki taqsimotiga bevosita ta'sir etuvchi institutsional omilga aylanmoqda.

Bu ta'sir quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- past maoshli va ijtimoiy himoyasi zaif sohalardan ommaviy chiqib ketish;
- ayrim kasb va sohalarning tashqi mehnat bozorlari bilan qat'iy bog'lanib qolishi;
- mehnatga layoqatli yosh aholining selektiv tarzda chiqib ketishi.

Bu holat ichki mehnat bozorida raqobatning pasayishiga, ish beruvchilarning innovatsion rivojlanishga qiziqishi susayishiga va tashqi mehnat bozorlariga institutsional bog'liqlikning kuchayishiga olib keladi[7].

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, tashqi mehnat migratsiyasining yuqumli funksiyasi oila, mahalla va mehnat bozori orqali jamiyat ichida barqaror ijtimoiy mexanizm sifatida shakllanmoqda. Bu jarayon ijtimoiy mobillikning ichki kanallarini cheklab, tashqi kanallarni ustuvor holatga keltirmoqda.

Biroq, moslashuvchanlik, til bilish, kasbiy ko'nikmalar va raqobatbardoshlik nuqta nazaridan yuqori ijtimoiy mobillik salohiyatiga ega hisoblanadi.

Mazkur tendensiyani bartaraf etish uchun tashqi migratsiyani cheklash emas, balki ichki mehnat bozori, ta'lim va mahalliy rivojlanish institutlarini kuchaytirish zarur.

Dunyo demografik manzarasi bir-biriga qarama-qarshi ikki tendensiya kuzatilmoqda.

Birinchisida – moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish sohalarida ishlaydigan, iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan va soliq to'laydigan faol odamlarning absolyut va nisbiy soni kamayib bormoqda.

Ikkinchisida – ishlaydigan, ammo nafaqa oladigan, jamiyat tibbiy va ijtimoiy g'amxo'rligiga muhtoj, davlat ijtimoiy ta'minotiga qaram odamlar ko'paymoqda. Migratsiya jarayonlarini ratsional tashkil etish[8], tashqi migratsiya jarayonlarini nazariy jihatdan modellashtirish va prognozlashtirishda, asosan, ikki maqsad ko'zga tashlanadi, birinchisi – obyektning kelajagi haqidagi umumiy sotsiologik tasavvurlarni muvofiqlashtirib, uning idealini yaratish jarayonini samarali tashkillashtirish, oqilona boshqarish yo'llarini aniqlash; ikkinchisi – migratsiya jarayonida shakllangan iqtisodiy munosabatlarning konstruktiv-ratsional optimallashtirish modeli yaratish orqali moddiy ishlab chiqarish korxonalarini oqilona joylashtirish, texnologik jarayonni takomillashtirish, mehnat bozorida talab va taklifni, mulk munosabatlarini optimallashtirish, o'zaro bog'liqligi, jamiyat migratsion muhitining yaxlit manzarasi, demokratik-gumanistik xarakteri, rivojlanish darajasi haqidagi ilmiy tasavvurlar asosida ularning matematik modellarini shakllantirishga asos bo'ladi.

Shu boisdan Prezidentimizning «Asosiy ishchi kuchi yashaydigan va ish o'rinlari yaratilayotgan hududlar o'rtasida mavjud tafovutlarni bartaraf etish uchun tashqi migratsiyani erkinlashtirish lozim»[9], degan fikri fuqarolarning ijtimoiy mobilligi, shuningdek, migratsiya jarayonlaridagi faolliklarini tartibga solishning konseptual asoslarini ishlab chiqishni taqozo qiladi.


BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2050-yilga borib 30 ta Yevropa davlatida aholi soni kamayishi kutilmoqda [10]. Ayni paytda, AQSh aholisi yuqori darajada migratsiyaviy o'sish va tug'ilish darajasining Yevropaga nisbatan yuqoriligi tufayli shuncha foizga oshadi.

2-jadval

Yevropa va AQSh aholisi taqqoslanishi

Yil	AQSh aholisi (mln)	Yevropa aholisi (mln)	Farq
1995	266	371	Yevropa +105 mln
2050	375	357	AQSh +18 mln

Ya'ni, 1995 yilda AQSh aholisidan 105 mln. ortiq bo'lgan Yevropa aholisi 2050 yilga borib, undan 18 mln. kam aholiga ega bo'ladi. Shuning uchun mazkur muammo yechimida tug'ilish va o'lim nisbatiga ta'sir qilishdan ko'ra, migratsiyaga ta'sir qilish osonligidan kelib chiqib, bu jarayonni ilmiy prognozlashtirish va modellashtirish kerak.



1-rasm. Aholi dinamikasi

Manba: BMT demografik prognozlari asosida muallif ishlanmasi.

Migratsiya jarayonlarini modellashtirish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, kelajakni bashorat qiluvchi futurologlar, asosan, uning son ko'rsatkichlarini ifodalashda matematik, kibernetik metodlardan foydalanadilar. Bu tadqiqot usullari, albatta, tashqi migratsiya obyekti va subyekti umumiy rivojlanish tendensiyasi haqida grafik-sxematik tasavvurlarni shakllantirishi bilan muhim ahamiyatga ega. Biroq, migratsiya bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar, ayniqsa, uning ijtimoiy-ruhiy, ma'naviy-madaniy, g'oyaviy-mafkuraviy ko'rsatkichlari haqidagi statistik-sotsiologik ma'lumotlar sof matematik hisob-kitoblardan, sonlarning oddiy sistematik-korrelyatsion aloqadorligidan iborat emas.

Boshqacha aytganda, har qanday ijtimoiy obyekt modeli matematik formulalarga, sxema, standartlarga qat'iy bo'ysunmaydigan, dinamik o'zgaruvchan ijtimoiy-psixologik stereotiplarga, ma'naviy-axloqiy normalarga, o'zaro ziddiyatli subyektiv-individual manfaatlarga asoslanadi. Ularning immanent [11] belgilarini, falsafa, sotsiologiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning nazariy-metodologik asoslariga, mantiqiy tahliliga tayangan holda aniqlab, umumiy rivojlanish yo'nalishlarini modellashtirish va istiqbollarini prognozlashtirish mumkin.

XULOSA

Tashqi migratsiya jarayonlarini boshqarish, optimallashtirish va demokratiyalashtirish nazariyasi-sotsiologiya fanining maxsus ilmiy yo'nalishi sifatida jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga, undagi o'zgarishlarga munosabatning maxsus shakli hisoblanadi.

Shaxsning real ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o'zgarishlar:

- birinchi tomondan, kishilarning ijtimoiy ongi, hayot tarzi, sotsial mobilligi haqidagi ilmiy tasavvurlariga asosiy determinlashtiruvchi omil sifatida ta'sir etadi;
- ikkinchi tomondan, ilmiy tasavvurlar, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy borlig'ini o'zgartirish strategiyasi va taktikasini belgilash shartidir. Mustahkam fundamental nazariy asosga tayanmagan har qanday amaliy faoliyat muvaffaqiyatsizlikka olib keladi.

Demografik muammolar vujudga kelishi va globallasuvi rivojlangan mamlakatlarda migrantlarga, ularning soni va sifatiga ehtiyoj oshib borish tendensiyasi jahon mehnat bozorida tashqi migratsiyaning kelajagi raqobatli kechishini ko'rsatmoqda. Shu o'rinda BMTning 10 ta global muammolarni klassifikatsiya qilish taptibida yadro urushi, ekologiya, xom ashyo resurslari

muammolaridan keyin demografik muammoning to'rtinchi o'rinda turishini eslatish joiz. Shuning uchun ham tashqi migratsiyaga ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni bartaraf qilish, yumshatish usuli sifatida qaralmoqda.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Parmanov F. Migratsiya, integratsiya, transformatsiya: monografiya - Toshkent: A. Navoiy nomidagi Milliy kutubxona. O'zbekiston nashriyoti, 2020.
2. Qodirov B. Oila va ijtimoiy transformatsiya. – Toshkent, 2019
3. Saidov A. Mehnat migratsiyasi iqtisodiy oqibatlari. – Toshkent, 2020.
4. Normatov U. Yoshlar va tashqi migratsiya strategiyalari. – Samarqand, 2021.
5. Qurbonov Sh. Ijtimoiy etalonlar va yoshlar ongi. – Toshkent, 2019.
6. Mo'minov Z. Tashqi migratsiya jarayonlarida ijtimoiy mobillik transformatsiyasining evolyutsion tendensiyalari//Monografiya. «MASHRAB» nashriyoti. – Namangan, 2025.
7. Safarov I. O'zbekiston mehnat resurslari transformatsiyasi. — Toshkent, 2021
8. Parmanov F. Migratsiya jarayonlari: transformatsiyasi va integratsiyalashuv tendensiyalari: Fan doktopi (DSc) dissertatsiyasi. <https://oak.uz/pages/6025>
9. «Xalq so'zi» gazetasi, 2020-yil 30-yanvar.
10. <https://population.un.org/wpp>
11. «Immanent» (lotinsha immanere – ishkarida qolmoq, ishida bo'lmoq) – bu falsafiy atama bo'lib, ishki mohiyatga ega bo'lgan, tashqi ta'sirlardan mustaqil holda mavjud bo'lgan degan ma'noni anglatadi.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000